**Материалы и методы:** Для изучения особенности интерферонов новорожденных родившихся от матерей с COVID-19 на базе Каганского —COVID госпиталля Бухарской области были обследованы 60 новорожденных. У всех беременных женщинах ПЦР тест на SARS-CoV2 были положительны. Обследование проводили в течение июль-ноябрь месяцев 2021 года. Все новорожденные являются доношенными в сроке гестации 38-42 недели. В крови, взятой из пуповины, определяли IFN $\alpha$ , АТ к IFN $\alpha$  и IFN $\gamma$ . Контрольную группу вошли 60 здоровых новорожденных детей от матерей с физиологически протекающей беременностью. Иммунологические исследования крови больных детей проводились в лаборатории иммуноморфологии института иммунологии и геномики человека АН РУз.

**Результаты исследование :** Из 60 детей по шкале Апгар родилось 51 детей с 7-8 баллами, 9 ребенка с 6-7 баллами. Результаты изучения интерферонов статуса новорожденных отобранных для исследования показали статистически

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRARISH  
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI  
VOLUME-2, ISSUE-3**

значимое снижение уровня IFN $\alpha$  у новорожденных 2-группы в 4,0 раза против данных здоровой группы-33,32 $\pm$  0,91пкг/ мл ( $p<0,05$ ). Анализ уровня антител к IFN $\alpha$  также показал достоверное повышение их уровня до 156,54 $\pm$  15,8 пкг/мл у пациентов 2-группы по отношению значений 1-группы-92,43 $\pm$  7,58 пкг/мл ( $p<0,05$ ). Полученные результаты анализа показывают активацию синтеза антител к IFN $\alpha$  у новорожденных, подвергавшиеся влиянию коронавирусной инфекции матери во время беременности. При этом также было установлено повышение уровня IFN $\gamma$  в 2,9 раза у новорожденных 2-группы ( $p<0,05$ ), по отношению показателей здоровой группы-23,8 $\pm$ 0,6 пкг/мл.

Следовательно, полученные результаты изучения интерферонового статуса наблюдаемых новорожденных в первые 5-е сутки жизни, показывает дисбаланс в синтезе интерферонов. На фоне активации синтеза IFN $\gamma$  в 2,9 раза, анти INF- $\alpha$  в 1,7 раза у доношенных новорожденных, родившиеся от матерей с COVID-19, отмечается 4-х кратное снижение синтеза INF- $\alpha$ .

**Заключение:** Таким образом, в результате проведенных нами научных исследований установлено, что дисбаланс в системе синтеза интерферона возникает у детей, рожденных от матерей, инфицированных инфекцией COVID-19.

### Список литературы

1. Capobianco G., Saderi L., Aliberti S., Mondoni M., Piana A., Dessole F., et al. COVID-19 in pregnant women: A systematic review and meta-analysis [published online ahead of print, 2020 Jul 16]. Eur J Obstet Gynecol Reprod Biol. 2020; S0301-2115(20)30446-2. doi:10.1016/j.ejogrb.2020.07.006
2. Coronavirus (COVID-19) Infection in Pregnancy. Version 12: RCOG, 14.10.2020. 77 p.
3. COVID-19 БИЛАН КАСАЛЛАНГАН ОНАЛАРДАН ТУФИЛГАН ЧАКАЛОКЛАРНИНГ АҲВОЛИНИ БАҲОЛАШ Хамидова Феруза Каримовна Эргашева Юлдуз Султоновна Абу Али Ибн Сино номидаги Бухоро Давлат Тиббиёт институти <https://doi.org/10.5281/zenodo.7625499>
4. Diriba K, Awulachew E, Getu E. The effect of coronavirus infection (SARS-CoV-2, MERS-CoV, and SARS-CoV) during pregnancy and the possibility of vertical maternal-fetal transmission: a systematic review and meta-analysis. Eur J Med Res. 2020 Sep 4;25(1):39. doi: 10.1186/s40001-020- 00439-w. PMID: 32887660; PMCID: PMC7471638.

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRISH  
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI  
VOLUME-2, ISSUE-3**

5. Jafari M, Pormohammad A., Sheikh Neshin S.A., Ghorbani S., Bose D., Alimohammadi S., Basirjafari S., Mohammadi M., Rasmussen-Ivey C., Razizadeh M.H., Nouri-Vaskeh M., Zarei M.. Clinical characteristics and outcomes of pregnant women with COVID-19 and comparison with control patients: A systematic review and meta-analysis. Rev Med Virol. 2021 Jan 2:e2208. doi: 10.1002/rmv.2208. Epub ahead of print. PMID: 33387448.
6. Karomatova Fazolat Abdikaxhorovna Characteristics and Immunological Status of Chronic Jaundice in Infants Born to Mothers Who Passed Covid-19 Vol. 2 No. 4 (2022) ISSN: 2795-921X38 <https://www.innovatus.es/index.php/ejmmp>
7. Schwartz DA. An Analysis of 38 Pregnant Women with COVID-19, Their Newborn Infants, and Maternal-Fetal Transmission of SARS-CoV-2: Maternal Coronavirus Infections and Pregnancy Outcomes [published online ahead of print, 2020 Mar 17]. Arch Pathol Lab Med.

FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRARISH  
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI  
VOLUME-2, ISSUE-3

BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA  
MODELLASHTIRISHDAN FOYDALANISH – O'QUVCHILARNING  
KREATIV TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHGA XIZMAT QILUVCHI  
ZAMONAVIY YONDASHUV

**Qulmo'minov O'rolboy Safar o'g'li,**  
TerDPI o'qituvchisi

**Annotatsiya**

Mazkur maqolada boshlang'ich sinf ona tili darslarida modellashtirish metodidan foydalanishning o'quvchilarning kreativ tafakkurini shakllantirishdagi o'rni yoritilgan. Unda modellashtirish o'qitish jarayoniga zamonaviy yondashuv sifatida talqin qilinadi hamda bu uslubning o'quvchilarda mustaqil fikrlash, mantiqiy mulohaza yuritish va ijodiy yondashuv ko'nikmalarini rivojlantirishdagi samaradorligi tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada modellashtirish orqali o'quvchilarning til materiallarini chuqurroq o'zlashtirishiga ko'maklashuvchi amaliy tavsiyalar ham keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** boshlang'ich ta'lim, ona tili darslari, modellashtirish, kreativ tafakkur, innovatsion yondashuv, didaktik usullar, o'quv jarayoni, ijodiy fikrlash, ta'lim samaradorligi.

Zamonaviy ilm-fan rivojida modellashtirish tushunchasiga e'tibor qaratilib kelinmoqda. Xususan, ta'lim jarayonida modellashtirish tizimi keng qo'llanilmoqda. Shu jihatdan mazkur tushunchani kengroq ma'noda izohlashni lozim topdik. Modellashtirish - zamonaviy talqinda ilmiy faoliyatning keng tarqalgan shakllaridan biri bo'lib, barcha fanlarda modellashtirilayotgan hodisalar haqida ma'lumot olishda, farazlar va nazariyalarni ishlab chiqishda modeldan foydalaniladi.

«Model», «modellashtirish» degan tushunchalar faqat murakkab fizik va tabiiy jarayonlarni tadqiq etish bilan bog'liq bo'lib, juda tor doiradagi mutaxassislar tomonidan hodisalar yoki murakkab texnik obyektlarni yaratish jarayoni o'rganilgan. Zamonlar o'tib kompyuter axborot texnologiyalari modellashtirish imkoniyatlarini yanada kengaytirdi va bugungi kunda modellarni qurish va ulardan foydalanishning metodologiyasi va zamonaviy vositalaridan foydalanmasdan ilmiy-tadqiqot va jiddiy loyiha faoliyatini tasavvur qilish qiyin. Ta'kidlash joizki, so'nggi o'n yilliklarda modellashtirish o'z obyektlari, qonuniyatlari, yondashuvlari va tadqiqot usullari bilan mustaqil fanlararo bilim sohasiga aylandi.

## FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI VOLUME-2, ISSUE-3

O'zbekiston milliy ensiklopediyasida "Modellashtirish - hodisa va jarayonlarni model yordamida tadqiq qilish; ob'ektlar (jonli va jonsiz tizimlar, muhandislik konstruktsiyalari, fizik, kimyoviy, biologik, ijtimoiy jarayonlar xamda loyihalanadigan ob'ektlar)ning modellarini yasash"<sup>1</sup> - deb izohlanadi. Modellashtirish, ayniqsa mavhum obyektlarni, olis-olislarda joylashgan obyektlarni, juda kichik hajmli obyektlarni o'rganishda ahamiyati kattadir. Modellashtirish inson faoliyatining turli-tuman sohalariga tobora kengroq va chuqurroq kirib bormoqda, tadqiqotning samarali vositalaridan foydalanishga imkon bermoqda.

I.T.Frolova modellashtirish tushunchasiga "Muayyan obyektning xususiyatlarini ularni o'rganish uchun maxsus yaratilgan boshqa obyektga takrorlash" - deb ifodalaydi<sup>2</sup>. Mazkur uslub ilmiy-tadqiqot jarayonini osonlashtiradi, ba'zi hollarda esa murakkab obyektlarini o'rganishning yagona vositasiga aylanadi. Modellashtirish uslubidan zamonaviy fanlardan fizika, astronomiya, biologiya, iqtisod kabilarda keng qo'llanilgan. Xususan, o'qitish jarayonini modellashtirish asosida tashkil etish yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Shu bois biz ham ona tili darslarida kreativ ko'nikmalarni rivojlantirish jarayonini modellashtirish uslubidan keng foydalandik. Izlanishlarimiz modellashtirish vositasida kreativ ko'nikmalarni rivojlantirish jarayonlarini tadqiq etishga undadi.

Dunyo ilm-fanida pedagogik modellashtirishga oid ilmiy-nazariy g'oyalar va metodologik yondashuvlar bisyor. Jumladan, mazkur tushuncha N.A.Kozyrev va O.A.Kozyrevalar tomonidan ilmiy jihatdan tahlil qilingan bo'lib, bunda o'qituvchi va o'quvchini ajratilgan fan yoki ilmiy bilim sohasi resurslarida didaktik va ilmiy-tadqiqot materiallarini o'rganish hamda tadqiq etishning zarur sifatini ta'minlaydigan, shakllangan bilim va kompetensiyalarni zamonaviy uzluksiz ta'lim modelida bilish va to'ldirish imkoniyatini batafsil ta'minlaydigan determinatsiya, vizualizatsiya, verifikatsiya, modifikatsiya qilish, yangi maqbul pedagogik vositani yaratish resursi tushuniladi<sup>3</sup>. Demak, modellashtirish pedagogik faoliyatda zamonaviy yangi, sifatli bilim yoki vositaning paydo bo'lishi imkoniyatini belgilovchi ilmiy-pedagogik tadqiqot usulihamdir.

<sup>1</sup> «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти ТОШКЕНТ. 2003 йил. М-harfi. 671-bet. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) кутубхонаси.

<sup>2</sup> Философский словарь / под ред. И.Т. Фролова. – М.: Республика, 2009. – 848 с.

<sup>3</sup> Козырев Н.А., Козырева О.А. Педагогическое моделирование как продукт и метод научнопедагогического исследования // Современная педагогика. 2015. № 8.

## FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI VOLUME-2, ISSUE-3

N.A.Kozyrev va O.A. Kozyrevalar «Pedagogik modellashtirish» tushunchasidan foydalanishning uchta asosiy yo'nalishini ajratib ko'rsatadi.

Keng ma'noda pedagogik modellashtirish - zamonaviy ta'lim va pedagogik faoliyat imkoniyatlari (har xil innovatsion resurslar, vositalar, usullar va boshqa obyektlar) ni aniqlovchi va maqbullashtiruvchi ta'lim-tarbiya makonining resursi.

Tor ma'noda pedagogik modellashtirish - pedagogik jihatdan talab yuqori bo'lgan turli modellar va vositalarni yaratishning maqbul shart-sharoitlari va imkoniyatlarini izlashga qaratilgan pedagogik faoliyat turi.

Mahalliy ma'noda pedagogik modellashtirish - zamonaviy pedagogika nazariyasi va amaliyotini ko'p madaniyatli ta'lim modelida shaxsni rivojlantirish va o'zini o'zi rivojlantirishning barqaror amalga oshiriladigan shart-sharoitlari va ustuvorliklari bilan ta'minlaydigan tushunchani keng ma'noda aniqlashtirish, yangi modellar va pedagogik vositalarni yaratish tushuniladi<sup>4</sup>.

Modellashtirish — ilmiy faoliyatning keng tarqalgan shakllaridan biridir. Barcha fanlarda modellashtirilayotgan hodisalar haqida ma'lumot olishda, farazlar va nazariyalarni ishlab chiqishda modeldan foydalaniladi. Shu jumladan tarixchilar ham bu uslubdan tadqiqotlar jarayonidan keng foydalanadilar. Tarixiy hodisalarni modellashtirish mantiqiy shakllantirish yordamida amalga oshiriladi, ya'ni fikran mazmun-vazifaviy reja shakllantiriladi. Modellashtirish soddalashtirish, ideallashtirish va abstraktlashtirish bilan bog'liq holda amalga oshiriladi. U manbalardagi ma'lumotlarning reprezentativligini tekshirishda, dalillarning ishochliligini, farazlar va nazariyalarning haqiqiylikini tekshirish imkonini beradi. Masalan, jamoaning holatini o'rganish uchun uni modellashtiradigan bo'lsak, bunda sotsiologiya, huquq, psixologiya hamda jamoaning o'ziga xosligi omillarini ham e'tiborga olish talab etiladi. Bu esa o'z navbatida fanlararo yondashuv uslubining qo'llanilayotganligini ham anglatadi. Bu jarayonda bir holatni hisobga olish kerakki, boshqa bir fanning modelini to'g'ridan-to'g'ri jalb etish maqsadga muvofiq emas, uni fanining tuzilishi mohiyati nuqtai-nazaridan shakllantirish lozim.[1]<sup>5</sup>

E.A.Seytxalilov xulosalariga ko'ra, "Modellashtirish mavhumlashtirish va ideallashtirish jarayonlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ular yordamida modellashtiriladigan ob'ektning modelda aks etadigan tomonlari ajratiladi". Demak,

<sup>4</sup> Козырев Н.А., Козырева О.А. Педагогическое моделирование как продукт и метод научнопедагогического исследования // Современная педагогика. 2015. № 8.

<sup>5</sup> Ilhomov Ziyovutdin Adxamovich. Tarix fanining nazariy asoslari (O'zbek), 2020 — 111-bet. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Modellashtirish>.

# FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI VOLUME-2, ISSUE-3

modellashtirish yordamida o'rganiladigan jarayonni yaqqol namoyish etish imkoni vujudga keladi va u to'g'risida bilimlarni tizimlashtirish ishlarini amalga oshirish, shuningdek, yaxlit tasniflashlarni ishlab chiqish, komponentlar o'rtasida o'zaro bog'liqlik hamda aloqalarni detallashtirish jarayoni tushuniladi. [123; 114-b.]<sup>6</sup>.

Ilmiy tadqiqot usullaridan biri bo'lgan modellashtirish pedagogikada keng qo'llaniladi. Modellashtirish usuli integrativ bo'lib, u pedagogik tadqiqotda empirik va nazariy usullarni birlashtirishga, ya'ni pedagogik obyektning o'rganish jarayonida mantiqiy konstruksiyalar va ilmiy mavhumliklarni yaratish bilan tajribani birlashtirishga imkon beradi.

Pedagogik ilm-fanda modellashtirish usuli V.G. Afanasyev, V.A. Venikov, B.A. Glinskiy, I.B. Novik, V.A. Shtoff kabi pedagog olimlar ishlarida batafsil tahlillar ko'zga tashlanadi. Jumladan G.V.Suxodol'skiy<sup>7</sup> "modellashtirish" atamasiga birmuncha kengroq ta'rif bergan: "Modellashtirish modellar ierarxiyasini tuzish jaraeni bo'lib, unda real mavjud bo'lgan tizim turli aspektlarda va turli vositalar asosida modellashtiriladi".

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. «Ўzbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti TOShKENT. 2003 yil. M-harfi. 671-bet. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi.
2. Filosofskiy slovar' / pod red. I.T. Frolova. – M.: Respublika, 2009. – 848 s.
3. КОЗЫРЕВ N.A., КОЗЫРЕВА O.A. Pedagogicheskoe modelirovanie kak produkt i metod nauchnopedagogicheskogo issledovaniya // Sovremennaya pedagogika. 2015. № 8.
4. Ilhomov Ziyovutdin Adxamovich. Tarix fanining nazariy asoslari (O'zbek), 2020 — 111-bet. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Modellashtirish>.
5. Seytxalilov E.A., Tojiev M. Pedagogicheskaya texnologiya: opyt prakticheskogo primeneniya i sistemno-soderzhatel'nogo analiza. Uchebnoe posobie . Izd.-vo «Tafakkur- bostoni». T.: 2012.- 256 s.
6. Suxodol'skiy G.V. Strukturno-algoritmicheskii analiz i sintez deyatel'nosti. – L.: LGU, 1976. – S.12.

<sup>6</sup> Сейтхалилов Э.А., Тожиев М. Педагогическая технология: опыт практического применения и системно-содержательного анализа. Учебное пособие . Изд.-во «Tafakkur- bostoni». T.: 2012.- 256 s.

<sup>7</sup> Суходольский Г.В. Структурно-алгоритмический анализ и синтез деятельности. – Л.: ЛГУ, 1976. – С.12.

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH  
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI  
VOLUME-2, ISSUE-3**

7. Kulmuminov, U., & Mukhtarova, L. (2023). POSSIBILITIES OF CREATIVE THINKING AND ITS MANIFESTATION IN THE EDUCATIONAL PROCESS. *Open Access Repository*, 4(02), 81-84.
8. Kulmuminov, U. (2023). CREATIVE TEACHING IN THE DEVELOPMENT OF CREATIVE EDUCATION. *Open Access Repository*, 4(2), 434-437.
9. KULMOMINOV, O. (2023). ISSUES OF DEVELOPMENT OF STUDENT'S CREATIVE SKILLS IN WORLD SCIENCE. *World Bulletin of Social Sciences*, 27, 54-56.
10. Kulmominov, O. (2023). TECHNOLOGY FOR DEVELOPMENT OF CREATIVE THINKING SKILLS OF PRIMARY CLASS STUDENTS IN NATURAL SCIENCE TEACHING. *Open Access Repository*, 9(10), 112-116.
11. Kulmominov, O., & Ibragimova, F. (2024). DEVELOPMENT OF CREATIVE ABILITY OF STUDENTS IN PRIMARY EDUCATION AS A PEDAGOGICAL PROBLEM. *World Bulletin of Social Sciences*, 34, 66-69.
12. Kulmominov, O. (2024). Creative Thinking Of Students In Primary Education And Methods Of Its Display In The Educational Process. *Pedagogical Cluster-Journal of Pedagogical Developments*, 2(5), 283-289.

DIRIJYORLIK SAN'ATINING PEDAGOGIK ASOSLARI VA YOSH  
ISTE'DODLARNI TAYYORLASHDAGI ROLI

**Nurullayev Farrux G'aybulloyevich**

Buxoro davlat pedagogika instituti musiqa va tasviriy san'at kafedrası

**Shuhrat Idiyevich Qodirov**

Buxoro davlat pedagogika instituti magistranti.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada dirijyorlik san'atining pedagogik asoslari va uning yosh musiqiy iste'dodlarni tayyorlashdagi o'rni yoritiladi. Dirijyorlik faqat sahnadagi boshqaruv emas, balki san'atning ham pedagogik, ham psixologik jihatlarini birlashtirgan faoliyat sifatida ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda dirijyorning metodik yondashuvlari, musiqa tafakkurini rivojlantirishdagi roli, yosh musiqachilarda jamoa ruhini shakllantirish va ularni estetik madaniyatga yo'naltirishning ahamiyati tahlil qilinadi. Maqola, shuningdek, dirijyorlik pedagogikasining asosiy tushunchalarini, uning metodlarini, ijtimoiy-psixologik ta'sirini va yosh avlodni musiqiy jihatdan shakllantirishga qaratilgan amaliy yondashuvlarini o'rganadi.

**Kalit so'zlar:** dirijyorlik san'ati, pedagogika, musiqiy ta'lim, iste'dod, orkestr, emotsional tarbiya, metodika.

**Аннотация:** В статье рассматриваются педагогические основы дирижирования и его роль в воспитании молодых музыкальных талантов. Дирижерство рассматривается не только как режиссёрское искусство, но и как деятельность, сочетающая в себе как педагогические, так и психологические аспекты искусства. В исследовании анализируются методические подходы дирижера, его роль в развитии музыкального мышления, значение формирования командного духа у молодых музыкантов и ориентации их на эстетическую культуру. В статье также рассматриваются основные понятия дирижерской педагогики, ее методы, социально-психологическое воздействие и практические подходы, направленные на музыкальное формирование подрастающего поколения.

**Ключевые слова:** дирижирование, педагогика, музыкальное воспитание, талант, оркестр, эмоциональное воспитание, методика.

**Abstract:** This article examines the pedagogical foundations of conducting and its role in the training of young musical talents. Conducting is considered not

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRISH  
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI  
VOLUME-2, ISSUE-3**

only as a management on stage, but also as an activity that combines both pedagogical and psychological aspects of art. The study analyzes the methodological approaches of the conductor, his role in the development of musical thinking, the importance of forming a team spirit in young musicians and directing them to aesthetic culture. The article also studies the basic concepts of conducting pedagogy, its methods, socio-psychological impact and practical approaches aimed at the musical formation of the younger generation.

**Keywords:** conducting, pedagogy, musical education, talent, orchestra, emotional education, methodology.

**Kirish.** Dirijyorlik san'ati musiqiy ijro etishning markaziy unsurlaridan biri bo'lib, uning pedagogik qiymati yosh avlodni musiqiy jihatdan tarbiyalashda alohida o'ringa ega. Dirijyor, faqatgina musiqiy asarlarni boshqaruvchi emas, balki ta'lim jarayonida o'quvchilarning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda, ularni musiqiy estetikaga, jamoa ishlash madaniyatiga, hamda ichki irodaga o'rgatadi. Dirijyorlik faoliyati yoshlar orasida musiqiy tafakkurni rivojlantiradi, estetik sezgini kuchaytiradi va ularning shaxsiy rivojlanishiga katta hissa qo'shadi.

Shu bois, dirijyorning pedagogik roli juda muhim, chunki u musiqaning nafaqat texnikasini, balki uning hissiy va estetik imkoniyatlarini ham o'rgatadi. Ushbu maqola dirijyorlik pedagogikasining metodik va psixologik jihatlarini keng yoritadi, yosh iste'dodlarni tarbiyalashda muhim yondashuvlarni aniqlaydi va ularning musiqiy kasbga bo'lgan yo'nalishini shakllantirishga qaratilgan asosiy g'oyalarni ifodalaydi.

**Metodologiyasi.** Ushbu maqolada ilmiy-tahliliy va kuzatuv metodlaridan foydalanilgan. Amaliy dirijyorlik tajribasi asosida yoshlar bilan olib borilayotgan mashg'ulotlar, dars jarayonlari tahlil qilinadi. Shuningdek, pedagogik kuzatuvlar, suhbatlar, repertuarni shakllantirishdagi yondashuvlar o'rganilib, umumlashtirilgan metodik tavsiyalar ishlab chiqiladi.

**Nazariyasi.** Dirijyorlik san'ati nazariy jihatdan musiqiy tafakkur, psixologik va pedagogik ko'nikmalarni birlashtirgan jarayon sifatida tushuniladi. Dirijyorning ijodiy faoliyati nafaqat orkestr yoki ansamblning sahnada uyg'un ishlashini ta'minlaydi, balki musiqa orqali yoshlarning dunyoqarashi, hissiy rivoji va estetik didini ham shakllantiradi. Dirijyorning pedagogik faoliyati avvalo o'quvchilarga musiqaning tilini tushunishga yordam beradi, musiqiy xotira va ijro etish ko'nikmalarini rivojlantiradi, shuningdek, jamoa ruhini shakllantiradi.

Nazariy yondashuvda dirijyorlik pedagogikasining asosiy funksiyalariga quyidagilar kiradi:

# FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI VOLUME-2, ISSUE-3

1. Musiqiy tafakkur va ijodiy rivojlanish: Dirijyor o'quvchilarni musiqiy asarni tushunishga, uning strukturaviy tarkibini his qilishga o'rgatadi.

2. Emotsional va estetik tarbiya: Dirijyorlik san'ati orqali o'quvchilar musiqaning estetik boyligini anglaydilar va o'zlari ham emotsional jihatdan boyitiladilar.

3. Jamoaviy ish va sahna madaniyati: Dirijyorning roli jamoaviy ishlash, mas'uliyatni his qilish, sahnada to'g'ri munosabatlarni o'rnatish kabi ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishdan iborat.

4. Psixologik yondashuv: Dirijyor o'z shogirdining psixologik holatini hisobga olib, dars jarayonini muvaffaqiyatli boshqaradi, ularning xohish-iste'dodini ochib beradi.

**Natija** Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, dirijyorlik san'atini to'g'ri pedagogik yondashuv asosida o'rgatish yosh iste'dodlarni muvaffaqiyatli tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Dirijyorlik darslari bolalarda ritm va musiqiy eshituvni rivojlantiradi, jamoada ishlash, mas'uliyatni his qilish, o'zini sahnada erkin tutish kabi ijobiy fazilatlarni shakllantiradi.

Shuningdek, dirijyorning o'rnak bo'lishi, emotsional yondashuvi va metodik aniqligi o'quvchilarda musiqa san'atiga bo'lgan qiziqishni kuchaytiradi, ularni mustaqil ijodga chorlaydi. Bu esa iqtidorli yoshlarning o'z yo'lini topishi, kasb tanlashi va professional rivojlanishiga zamin yaratadi.

**Xulosa.** Dirijyorlik san'ati nafaqat musiqiy ko'nikmalarni rivojlantirishda, balki yoshlarning estetik sezgilari, hissiy va ijodiy rivoji, shaxsiy irodasini shakllantirishda ham katta ahamiyatga ega. Dirijyorning pedagogik yondashuvi yosh avlodni musiqiy jihatdan tarbiyalashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Dirijyorlikning muvaffaqiyatli pedagogik modeli musiqiy ta'lim tizimining yuqori darajasini ta'minlaydi va yoshlarning o'ziga xos musiqiy potentsialini yuzaga chiqaradi. O'quvchilarni individual tarzda tarbiyalash, ular bilan ijodiy faoliyatni rivojlantirish va musiqiy asarni to'g'ri his qilishni o'rgatish orqali, dirijyor nafaqat musiqiy kasbni, balki shaxsiyatni shakllantiradi. Bundan tashqari, dirijyorlik san'atini rivojlantirish uchun ta'lim tizimida yangi metodik yondashuvlar, zamonaviy texnologiyalarni qo'llash, va pedagogik metodlarni takomillashtirish zarur. Kelajakda dirijyorlik san'atini professional darajada rivojlantirish uchun musiqiy maktablarda, litsey va oliy ta'lim muassasalarida sifatli metodik darsliklar va amaliy mashg'ulotlar joriy etilishi muhim.

## Adabiyotlar ro'yxati:

1. F.G Nurullayev, Firdavs To'xtayev-[MUSIQIY TOVUSHLARINING XUSUSIYATLARI TENDENTSIYALARI](#). Journal of science-innovative research in Uzbekistan, 2024/12/1, Tom-2,12, 8-15 betlar

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRARISH  
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI  
VOLUME-2, ISSUE-3**

2. Nurullayev Farrux Gaybulloyevich, X.G Saidovna. [FORMATION OF SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION OF STUDENTS THROUGH THE MEANS OF UZBEK FOLK SONGS.](#) International journal of artificial intelligence ISSN: 2692-515X
3. Xujayev Dilmurod Bakiyevich, Nurullayev Farrux Gaybulloyevich- [MAVRIGI VA BUXORCHA KONSEPTSIYASI TAMOYILLARI BUXORODA QAROR TOPISHI,](#) International journal of scientific researchers (IJSR) INDEXING, 2024/4/30, Tom-5,1, 515-520 betlar
4. D.M Yusupovich, N.F. Gaybulloyevich- [Milliy Musiqa San'ati Ravnaq Topishida O 'Zbek Folklorining O 'Rni Va Ahamiyati-](#) Diversity Research: Journal of Analysis and Trends, 2024/2/6, Tom-2,2, 4-8 betlar
5. Egamov Oxunjon Saidovich Nurullayev F.G- [BUXORO VOHASI FOLKLOR QO'SHIQLARI O'ZBEK XALQINING BOY MEROSI SIFATIDA,](#) Confrencea - Virtual International Conferences, "International Conference on Advance Research in Humanities, Sciences and Education." [Vol. 1 No. 1 \(2024\)](#)
6. Istatov Muhridin Qaxramonovich, Nurullayev Farrux Gaybulloyevich- [MUSIQIY TOVUSHLARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI VA CHOLGU ASBOBLARIDA JOR BOLISH USLUBLARI.](#) International Conference on Advance Research in Humanities, Sciences and Education, Hosted from New York, the USA <https://conferencea.org> January 30th, 2024, Confrencea 1 (1),74-78
7. Norqulov Sh Sh, F.G Nurullayev. [SKRIPKA CHOLG'U ASBOBIGA BIR NAZAR. PEDAGOGS INTERNATIONAL RESEARCH JOURNAL | PEDAGOGS | PED | VOLUME-76 | ISSUE-1\(2025\)](#)
8. Norqulov Sh Sh, F.G Nurullayev. [MUSIQA TO'GARAGLARINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHGA OID NAZARIY-PEDAGOGIK HAMDA PSIXOLOGIK ASOSLAR. ЛУЧШИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ | INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL .](#) Vol. 39 No. 1 (2025)
9. Nurullayev Farrux Gaybulloyevich [.O'QUVCHILARGA BOLALAR FOLKLOR QO'SHIQLARINI O'RGATISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI. Vol. 75 No. 1 \(2025\): PEDAGOGS INTERNATIONAL RESEARCH JOURNAL | PEDAGOGS | PED | VOLUME-75 | ISSUE-1.](#)
10. Sayfullayev Sanjarbek Sadullayevich Nurullayev Farrux Gaybulloyevich. [FOLKLOR QO 'SHIQLARINING O 'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.](#) International Conference on Advance Research in Humanities, Sciences and

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRARISH  
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI  
VOLUME-2, ISSUE-3**

Education, Hosted from New York, the USA <https://conferencea.org> January 30th, 2024

11. Rustamov Feruz Tavakkal o'g'li, & Nurullayev Farrukh Gaybulloyevich. EDUCATION OF A CHILD BY MUSIC IN THE EARLY PERIOD OF LIFE. (2023). Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development, 22, 29–34. Retrieved from <https://sjird.journal-spark.org/index.php/sjird/article/view/863>
12. Usmanov Azizbek Azamatovich, Nurullayev Farrukh Gaibulloyevich. THE ROLE OF MUSIC CULTURE LESSONS IN THE GROWTH OF THE CONSCIOUSNESS OF THE STUDENT YOUTH AND NATIONAL THINKING. (2023). *Western European Journal of Modern Experiments and Scientific Methods*, 1(4), 5-9.
13. Usmonov Azizbek Azamatovich, Nurullayev Farrux Gaybulloyevich. O'Quvchilarni Ma'naviy-Axloqiy Shakllantirishda O'zbek Xalq Qo'Shiqlari Ahamiyati. Progress Annals: Journal of Progressive Research|Vol. 1 No. 8 (2023): Progress Annals. Published: 2023-12-06
14. X.M.Ashurmuxamadovna, N.F.Gaybulloyevich MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING MUSIQIY FAOLIYATI. (2023). Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 3(4), 14-19. <https://mjstjournal.com/index.php/mjst/article/view/282>
15. Nurullayev Farrux Gaybulloyevich. "O'ZBEK MUSIQASI TARIXI" FANINI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR. Ilm-fan va texnologiyalar. 2023 №2(1) Наука и технологии
16. Habibullayeva G.H., Nurullayev F.G. O'ZBEK FOLKLOR QO'SHIQLARINING BOLALAR TARBIYASIDAGI AHAMIYATI. Inter education & global study 2023
17. Z.X Xamrayev, F.G Nurullayev - O 'ZBEK ESTRADA SAN' ATINING XALQ MADANIY HAYOTIDA TUTGAN O 'RNI - Экономика и социум, 2023 № 4-2 (107) стр 325-328
18. Hamdamova Sitara Rustamova, Nurullaev Farrukh Gaibullayevich-MUSIC AS A TOOL FOR RAISING CHILDREN EARLY LIFE. Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development. 2022/11/29 Vol.9, 422-427
19. Фаррух Гайбуллоевич Нуруллаев-Значение Фольклёрной Музыки В Воспитание Детей. Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities. 2022/11/24. Vol 12. 189-193

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH  
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI  
VOLUME-2, ISSUE-3**

20. Rahmonova Hojibuvi Rizojon Qizi, Nurillayev Farrux-Musiqaning inson ruhiyatiga tasiri qadimgi dunyo olimlarining qarashlarida. Ta'lim fidoyilari, OOO «Research and publications» 2022.Vol 24,№ 45, 73-83
21. Madaminova Muyassarxon, Nurullayev F.G.-UMUMIY ÓRTA TA'LIM MAKTABLARIDA MUSIQA TARBIYASI.Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)2022 Special issue,130-134, OOO «THE FUTURE OF A NEW DAY»
22. Фаррух Гайбуллоевич Нуруллаев- Случайный выбор качественных характеристик материала по музыки или порядок его изложения в процессе создания музыки или исполнения опуса. SCIENTIFIC PROGRESS.2021.Vol 2, №4(pp. 588-593)
- 23.Nurullaev F.G. The role of folklore in the raising of children. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 8 No. 12, 2020 Part III ISSN 2056-5852.
- 24.Нуруллаев Ф.Г., Нуруллаева Н.К. Роль фольклорных песен в воспитании учащихся. Научно– методический журнал «Проблемы педагогики» №3(48). Москва 2020. С.15-17.
- 25.Нуруллаев Ф.Г., Композиционный и исполнительский процесс в музыке // «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal ISSN: 2181-1601, 2021.- pp. 576-581.
- 26.Нуруллаев Ф.Г. Импровизаторское творчество в XX веке по сфере музыке// «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal ISSN: 2181-1601, 2021.- pp. 582-587.
- 27.Nurullayeva N.G., Nurullaeva N.K., Nurullaev B.G. Role and significance of folkler music in the upbringing of children of preschool age. Academicia An International Multidisciplinary Research Journal. Vol.10, Issue 10, October 2020.
- 28.Нуруллаев Ф.Г., Музыкальный процесс в западной музыке // «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal ISSN: 2181-1601, 2021. - pp.570-575.
- 29.Нуруллаев Ф.Г., Норова Ш.У. Психология музыкальных дидактических игр на интегрированных занятиях// Вестник интергративной психологии. Журнал для психологов. Выпуск №17, 2018. – С.295-299.
- 30.Нуруллаев Ф.Г., Нуруллаева Н.К. Музыкально-историческое наследие центральной Азии (психологический настрой армии Темура). Психология XXI столетия, 18-20 марта 2020 года С. 115-118.

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRARISH  
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI  
VOLUME-2, ISSUE-3  
MAHALLIY BYUDJETLARNING IJTIMOIIY-IQTISODIY  
RIVOJLANISHDAGI O'RNI**

**Qodirova Ozoda**

TerDU magistratura iqtisodiyot ta'lim yo'nalishi talabasi

Email [ozodaraxmiddinovna@gmail.com](mailto:ozodaraxmiddinovna@gmail.com)

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada mahalliy byudjetlarning hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi o'zni va ularning samarali boshqaruvi masalalari atroflicha yoritilgan. Mahalliy byudjetlar mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida muhim moliyaviy asoslardan biri bo'lib, aholi farovonligini oshirish, infratuzilmani takomillashtirish, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va boshqa ijtimoiy sohalarni qo'llab-quvvatlashda beqiyos rol o'ynaydi. Maqolada mahalliy byudjetlarning shakllanish manbalari, xarajatlar tarkibi, ularni rejalashtirish va ijro etish mexanizmlari keng ko'lamda tahlil qilingan. Shuningdek, hududiy byudjet siyosatining samaradorligini oshirish, moliyaviy mustaqillikni ta'minlash va resurslardan oqilona foydalanish masalalari bo'yicha ilg'or tajribalar va xalqaro amaliyot misollarida tahliliy fikrlar keltirilgan. Muallif mahalliy byudjetlarni boshqarishda ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash, jamoatchilik ishtirokini kengaytirish, shuningdek, zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etishning ahamiyatini alohida ta'kidlaydi. Yakuniy xulosalarda esa mahalliy byudjetlar orqali ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirishga xizmat qiluvchi tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Mahalliy byudjet, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, hududiy moliya, moliyaviy resurslar, infratuzilma rivoji, boshqaruv samaradorligi, byudjet siyosati, resurslardan foydalanish, shaffoflik, jamoatchilik ishtiroki, raqamli texnologiyalar, iqtisodiy barqarorlik.

**Kirish.**

Mahalliy byudjetlar mamlakat iqtisodiyotining asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, hududiy rivojlanishni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Byudjetlar faqatgina davlatning moliyaviy resurslarini boshqarish vositasi sifatida emas, balki ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotning asosiy mexanizmi sifatida ham qaraladi. Mahalliy byudjetlar hududlarning o'ziga xos ehtiyojlarini hisobga olgan holda, infratuzilma rivojini, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va boshqa sohalarni qo'llab-quvvatlashni ta'minlashga xizmat qiladi. Ular shuningdek, mahalliy aholi farovonligini oshirish, mehnat

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRISH  
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI  
VOLUME-2, ISSUE-3**

bozorining barqarorligini saqlash, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, mahalliy byudjetlarni shakllantirish va boshqarishda mavjud muammolar, resurslardan samarali foydalanish va byudjetlar orasidagi notekislik masalalari ham dolzarb hisoblanadi. Mahalliy byudjetlar orqali iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, mahalliy o'zgarishlarga moslashuvchanlik va aholining ehtiyojlariga javob berish zarurati ayni paytda eng muhim masalalardan biridir. Ushbu maqolada mahalliy byudjetlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni va ularning samarali boshqarishning ahamiyati tahlil qilinadi.

**Asosiy qism.**

Mahalliy byudjetlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda tutgan o'rni juda katta. Ular faqatgina davlatning moliyaviy resurslarini boshqarish vositasi sifatida emas, balki hududiy rivojlanish va aholining turmush darajasini oshirishda, shuningdek, mahalliy ijtimoiy infratuzilmaning mustahkamlanishida muhim omil hisoblanadi. Mahalliy byudjetlarning asosiy maqsadi hududiy aholi ehtiyojlarini qondirish, ularning farovonligini ta'minlash va iqtisodiy barqarorlikni saqlashdir. Mahalliy byudjetlarning shakllanishi va manbalari. Mahalliy byudjetlarning asosiy manbalariga hududiy soliq tushumlari, davlat budjetidan ajratilgan grantlar, subsidiya va boshqa moliyaviy resurslar kiradi. Hududiy soliq tizimi va soliq yig'ishning samaradorligi mahalliy byudjetlarning shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Soliq to'lovchilarning soni, soliq stavkalari va ularni yig'ish tizimi hududiy byudjetning o'zgaruvchanligini belgilaydi. Shuningdek, davlat byudjeti orqali mahalliy byudjetlarga o'tkaziladigan yordamlar, subsidiya va grantlar mahalliy hududlarning moliyaviy holatini ta'minlashga yordam beradi. Mahalliy byudjetlarning shakllanishi jarayonida aholi ehtiyojlari va hududiy rivojlanish strategiyasi hisobga olinadi. Har bir hududning o'ziga xos iqtisodiy va ijtimoiy holati, demografik xususiyatlari, mavjud resurslar va infratuzilma darajasi mahalliy byudjetni shakllantirishda asosiy omillar hisoblanadi. Mahalliy byudjetlar va ijtimoiy rivojlanish. Mahalliy byudjetlar hududiy ijtimoiy rivojlanishning asosiy vositalaridan biridir. Ular orqali ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, sport, ekologiya va boshqa sohalarga zaruriy mablag'lar ajratiladi. Ta'lim tizimi va uning moliyaviy ta'minoti mahalliy byudjetning muhim qismini tashkil qiladi. Mahalliy byudjetdan ajratilgan mablag'lar maktablar, kollejlarga, oliy ta'lim muassasalariga, ilmiy tadqiqotlar va ta'lim resurslariga sarflanadi. Sog'liqni saqlash sohasi ham mahalliy byudjetlardan ajratilgan mablag'lar orqali rivojlanadi, shuningdek, tibbiyot muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, yangi tibbiy texnologiyalarni joriy etish, aholi salomatligini yaxshilash uchun zarur resurslar ajratiladi. Mahalliy byudjetlar orqali sport infratuzilmasi ham rivojlanadi. Sport inshootlarini qurish, jismoniy tarbiya va sportning barcha turlarini rivojlantirishga

## FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI VOLUME-2, ISSUE-3

yo'naltirilgan mablag'lar ajratish hududiy ijtimoiy taraqqiyotning ajralmas qismi bo'lib, aholi salomatligini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, suv resurslarini boshqarish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish kabi masalalar ham mahalliy byudjetlar orqali hal etiladi. Mahalliy byudjetlarni boshqarishdagi samaradorlik. Mahalliy byudjetlarni boshqarish samaradorligi bevosita mahalliy davlat organlarining malakasi, byudjet jarayonini boshqarish tizimining shaffofligi va jamoatchilik ishtirokiga bog'liq. Byudjetni shakllantirish, taqsimlash va sarflash jarayonlarida ochiqlik, shaffoflik va hisobotning to'g'riligi muhimdir. Mahalliy byudjetni boshqarishda muhim masalalardan biri – bu resurslardan samarali foydalanishdir. Aholi ehtiyojlarini to'liq qondirish uchun ajratilgan mablag'larning maqsadli sarflanishi ta'minlanishi kerak. Mahalliy organlarning bu boradagi mas'uliyati, shuningdek, byudjetni ijro etishda nazorat tizimining kuchaytirilishi zarur. Moliyaviy resurslardan samarali foydalanish va raqamli texnologiyalar. Mahalliy byudjetlarni boshqarishda raqamli texnologiyalarni joriy etish samaradorlikni oshiradi. Elektron tizimlar yordamida byudjet mablag'larining sarfini nazorat qilish, soliq yig'ish jarayonlarini soddalashtirish va aholiga xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash mumkin. Shu bilan birga, zamonaviy texnologiyalar mahalliy organlarga resurslarni samarali taqsimlashda, shuningdek, jamoatchilik bilan muloqotda bo'lishda yordam beradi. Masalan, raqamli platformalar orqali byudjet haqida jamoatchilikni xabardor qilish, ularning takliflarini olish va qarorlar qabul qilish jarayonida ishtirok etish imkoniyati yaratiladi. Mahalliy byudjetlar va iqtisodiy barqarorlik. Mahalliy byudjetlar hududiy iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Ular iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, ish o'rinlarini yaratish, kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan dasturlarni moliyalashtirish orqali iqtisodiy faollikni oshirishga yordam beradi. Mahalliy byudjetlar, shuningdek, hududdagi iqtisodiy notekisliklarni kamaytirish va tengsizlikni bartaraf etish uchun zarur bo'lgan vositalarni taqdim etadi. Har bir hududning o'ziga xos iqtisodiy sharoitlariga qarab, mahalliy byudjetdan ajratiladigan mablag'lar turlicha yo'nalishlarga qaratiladi, bu esa ularning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga qo'shgan hissasini oshiradi.

### **Xulosa:**

Mahalliy byudjetlar hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida markaziy ahamiyatga ega. Ular faqat davlatning moliyaviy resurslarini taqsimlash vositasi sifatida emas, balki hududiy barqarorlikni ta'minlash, aholi farovonligini oshirish, infratuzilmani rivojlantirish va ijtimoiy sohalarni qo'llab-quvvatlashda asosiy rol o'ynaydi. Mahalliy byudjetlarning shakllanishi va boshqarilishi hududning iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi, bu esa uning

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH  
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI  
VOLUME-2, ISSUE-3**

samaradorligini oshiradi. Mahalliy byudjetlarning muvaffaqiyatli ishlashi uchun byudjet jarayonlarining shaffofligi, resurslardan samarali foydalanish va jamoatchilik ishtiroki muhimdir. Shuningdek, mahalliy byudjetlarni boshqarishda raqamli texnologiyalarni joriy etish, soliq yig'ish tizimini takomillashtirish va aholiga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish imkonini beradi. Bu, o'z navbatida, mahalliy iqtisodiyotni mustahkamlash, ish o'rinlarini yaratish va kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Shuningdek, mahalliy byudjetlarni boshqarishda yuzaga keladigan muammolar va ularni hal qilish bo'yicha tavsiyalarni keltirish ham zarur. Hududiy moliyaviy resurslarni yanada samarali taqsimlash, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va ijtimoiy xizmatlarning sifatini oshirish mahalliy byudjetlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga qo'shgan hissasini yanada kuchaytiradi. Xulosa qilib aytganda, mahalliy byudjetlar nafaqat hududiy iqtisodiyotni rivojlantirish, balki jamiyatning barcha sohalarini qo'llab-quvvatlash orqali barqaror rivojlanishga erishishda muhim vosita hisoblanadi. Ularning samarali boshqarilishi va innovatsion yondashuvlar orqali iqtisodiy barqarorlikka erishish mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Saidov, Sh. (2020). Mahalliy byudjetlar va hududiy iqtisodiy rivojlanish. Tashkent: «Iqtisodiyot» nashriyoti.
2. Abduqahhorov, T. (2019). O'zbekistonning hududiy moliya tizimi. Toshkent: «O'zbekiston iqtisodiyoti» nashriyoti.
3. Shukurov, M. (2018). Mahalliy byudjetlarni boshqarish va shaffoflik. Tashkent: «Iqtisodiy adabiyot» nashriyoti.
4. Mamatov, R. (2021). Hududiy byudjetlarning samarali boshqarilishi. Buxoro: Buxoro universiteti nashriyoti.
5. Nazarov, A. (2020). Mahalliy byudjetlar va davlat xarajatlari. Toshkent: «Ma'naviyat» nashriyoti.
